

xislatlariga ko'ra faoliyat turini erkin tanlash imkonini beradi. Mulkchilik turli shakllarining mavjudligi va ularning tengligi iqtisodiy plyuralizmning asosidir. Ikkinchidan, mulkchilikning turli-tumanligi jamiyatda raqobat kurashi bo'lishi uchun zarur muhit yaratadi. Bularsiz jamiyat taraqqiyotiga erishib bo'lmaydi.

Bozor iqtisodiyoti yakka hokimlik (monopolizm)ni inkor etuvchi iqtisod. Iqtisodiy monopolizm — korporatsiya, firma, tashkilot yoki davlatning iqtisodiyotda yoki biror sohada tanho hukmronlik qilishidir. Monopolizmning asosi iqtisodiyotda muayyan mulk shaklining tanho hukmronligidir. Monopoliya o'z tabiatiga ko'ra turg'unlikni paydo qiladi, tashabbusni chegaralaydi va hokazo. Shuning uchun ham bozor iqtisodiyoti monopolizm bilan chiqisha olmaydi. U antimonopol yo'nalishga ega.

Bozor iqtisodiyotida raqobat asosiy o'rin tutadi. Raqobat bozor iqtisodiyotini harakatga keltiruvchi, tartibga soluvchi, nazorat qiluvchi kuch hisoblanadi. Raqobat kurashi mehnat unumini oshirishga, ish sifatini yaxshilashga, yangi texnika, texnologiyani joriy qilishga, iqtisodiy resurslarni kam sarflagan holda ularni samarali ishlatishga undaydi. Raqobat kurashida g'olib chiqish uchun aholi talabiga mos tovarlar ishlab chiqarishga, talabning o'zgarishiga tez moslashish zarur. Natijada raqobat kurashi iqtisodiyotni olg'a qarab rivojlanishiga olib keladi. Bu monopoliya mavjud bo'lgan taqdirda ham o'z bilganicha ish yuritishni bildirmaydi. Chunki raqobatni davlat tartibga solib turadi. Antimonopol kuchlar vujudga keltirilib, bozor iqtisodiyotining hamma sub'ektlari uchun bir xil imkoniyat yaratiladi. Ana shu imkoniyatdan qay darajada foydalanish ishbilarmonlikka bog'liq.

Bozor iqtisodiyotida bir tomondan, manfaatlar to'qnashib raqobat yuz bersa, ikkinchi tomondan, sub'ektlar o'z faoliyatini, demak, manfaatlarini bir-birlariga muvofiqlashtirishga intiladilar. Chunki faqat raqobatlashsalar ularning ishi yurishmaydi. Bu iqtisodiyotda ikki bir-biriga zid tomon. Iqtisodiy integratsiya ham iqtisodiy sub'ektlarning manfaatlarini moslashtirishga, murosaga kelishiga undaydi. Ishlab chiqarishdagi o'zaro bog'liqlik kuchayishi bilan integratsiyalashmay yaxshi foyda olish qiyin bo'lib qoladi. Ishlab chiqarish ixtisoslashuvining kuchayishi firma, korxonalarining bir-biriga bog'liqligini kuchaytiradi. Natijada ular o'rtasida doimiy ravishda tijorat aloqalari o'rnatiladiki, bunda sheriklariga pand bermaslik muhim rol o'ynaydi.

Bozorning ichki tuzilishi murakkab bo'lgashtigi sababli uni turkumlashga har xil mezonlar asos qilib olinadi. Bular sotiladigan va sotib olinadigan mahsulot turi, bozor subyektlari xususiyatlari, bozor miqyosi, iqtisodiy aloqalar xarakteri va boshqalar. Bozorning yetuklik darajasiga qarab rivojlanmagan bozor, klassik (erkin) bozor, hozirgi zamon rivojlangan bozorlarga bo'linadi. Rivojlanmagan, shakllanayotgan bozor ko'proq, tasodifiy xarakterga ega bo'lib, unda tovarga - tovar ayirboshlash usuli (barter) ko'proq qo'llaniladi. Bozorning bu turi tarixan hali haqiqiy pul kelib chiqmagan davrga to'g'ri keladi. Lekin hozirgi davrda ham ayrim mamlakatlarda pul inqirozga uchrab, ijtimoiy ishonchni yo'qotgan, bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan davrlarda ham bu bozor amal qilishi mumkin. Erkin (klassik) bozor-tovar va xizmatlarning har bir turi bo'yicha juda ko'p ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar, ya'ni sotuvchilar va sotib oluvchilardan iborat bo'lib, pul

orqali ayirboshlash jarayonida ular o'rtasida erkin raqobat kelib chiqadi, baholar talab va taklif o'rtasidagi nisbatga qarab erkin shakllanadi, raqobatning turli usullari qo'llaniladi, aholi va ishlab chiqaruvchilar keskin taqiqlanadi. Hozirgi zamon rivojlangan bozori — bunda davlat ham bozor ishtirokchisi bo'lib, bozor ancha tartiblashtiriladi va boshqariladi, turli xil birjalar va boshqa oldi-sotdi jarayoniga xizmat qiluvchi sohalar rivojlangan bo'ladi, raqobat kurashlari aholining tabaqalashuvi yumshatilib, ularning daromadlari darajasi o'rtasidagi farqlar kamayadi. Bozor hududiy jihatdan ham turlicha bo'lishi mumkin.

Bozor tizimining afzalligi bizning qilgan tahlillarimizdan ko'rinadi. Bu tahlillardan ikkitasi ayniqsa e'tiborga loyiq.

Resurslarni taqsimlashning samaradorligi. Bozor tizimi resurslarni samarali taqsimlashga yordam beradi. Buning mazmuni shuki, raqobatli bozor tizimi resurslarni jamiyatga eng zarur bo'lgan tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishga yo'naltiradi. U ipshab chiqarish uchun resurslarni Uyg'unlashtirishning ancha samarali usullarini va ishlab chiqarishga yangi, ancha samarali texnologiyani qo'llashni taqozo etadi. Qisqasi, bozor tizimi shaxsiy manfaatni shunday tartibda boshqaradiki, u jamiyatga mavjud resurslardan zarur tovarlarni eng ko'p miqdorda ishlab chiqarishni ta'minlaydi.

Erkinlik bozor tizimi foydasi hisobiga muxim noiqtisodiy dalil bo'lib shu holat xizmat qiladiki, u shaxsiy erkinlik rolga ustivorlik beradi. Ko'plab ayrim shaxslar va korxonalar iqtisodiy faoliyatini uyg'unlashtirish jamiyatni tashkil qilishning asosiy muammolaridan biridir. Bunday uyg'unlashtirishni amalga oshirishning ikki usuli mavjud. Biri - markazdan boshqarish va majbur qilish tadbirlarini qo'llash; ikkinchisi — bozor tizimi vositasi orqali ixtiyoriy hamkorlik. Faqat bozor tizimigina iqtisodiy faoliyatni majbur qilmasdan uyg'unlapqirishga layoqatlidir. Bozor tizimi tadbirkorlik va tanlash erkinligini namoyish qiladi, xususan shu asosda u muvaffaqiyatga erishadi. Bozor iqtisodiyotining kamchiligi. Bozor iqtisodiyotini tanqid qiluvchilarning fikriga ko'ra, bunday iqtisodiyot o'zining bosh nazorat mexanizmi raqobatning tugashiga yo'l qo'yadi va hatto buni rag'batlantiradi. Ular raqobat kuchsizlanishining ikkita asosiy manbai mavjud bo'lishini ko'zda tutadilar.

Iqtisodiy nuqtai nazardan raqobat maqbul bo'lsa-da, u hammadan ko'proq alohida ishlab chiqarishga o'zining shafqatsiz ta'sirini o'tkazadi. Bozor iqtisodiyotidagi erkin muhitda tadbirkorlar foyda ketidan quvib va o'z iqtisodiy mavqeyini yaxshilashga intilib, raqobatning cheklangan yo'lidan ozod bo'lishga harakat qiladilar. Firmalarning qo'shilib ketishi, kompaniyalarning xufyona kelishuvi, shafqatsiz raqobat — bularning hammasi raqobatning kuchsizlanish va uning tartibga soluvchilik ta'sirining yo'qolishini taqozo qiladi.

Ayrim iqtisodchilarning fikricha, bozor tizimi rag'batlantiradigan texnika taraqqiyotining o'zi raqobatning zaiflashishini taqozo qiladi. Eng yangi texnologiya, odatda, quyidagilarni: juda katta miqdordagi real kapitaldan foydalanishni; yirik bozorlar bo'lishini; kompleksli, markazlashgan va qat'iy bir butun bo'lib birlashgan bozorning tarkib topishi; boy va ishonchli xom-ashyo manbalarini talab qiladi. Bunday texnologiya bozorning hajmiga nisbatan keng miqyosdagi hisoblanuvchi ishlab chiqaruvchilar mavjud bo'lishi zarurligini bildiradi. Boshqacha aytganda, eng yangi texnologiyani qo'llash asosida ishlab

chiqarishning eng yuqori samaradorligiga erishish, ko'pincha ko'p miqdordagi hali mayda firmalar emas, uncha ko'p bo'lmagan hali yirik ishlab chiqaruvchilar mavjud bo'lishini taqozo qiladi. Bu guruh iqtisodchilar raqobatning so'nib borishi bilan bozor tizimi ham resurslarni samarali taqsimlash mexanizmi sifatida kuchsizlanib boradi deb hisoblaydilar. Ishlab chiqaruvchilar va resurs bilan ta'minlovchilar iste'molchining xohish irodasiga kamroq bo'ysunadi va ularning mustaqilligi iste'molchining mustaqilligiga putur yetkazadi. Talab bildirish yordamida shaxsiy va ijtimoiy manfaatlarning uyg'unlashuvi jarayoni o'z kuchini yo'qota boshlaydi.

Isrofli va samarasiz ishlab chiqarish. Tanqidchilar bozor tizimi jamiyatni ehtiyoji yuqori bo'lgan tovarlar bilan ta'minlashiga ham shubha bildiradilar. Ular raqobatning kuchsizlanib borishi bilan, iste'molchining mustaqilligiga putur yetadi, bozor tizimi o'zining iste'molchining xohishiga ancha mos keluvchi resurslarni taqsimlash layoqatini ham yo'qotadi deb hisoblaydilar.

Bozor tizimi foydasi hisobiga bosh iqtisodiy dalil shuki, resurslarning samarali taqsimlanishini ta'minlashga yordam beradi — buni inkor etish qiyin.

Ko'rib turganimizdek, iqtisodiyoti va biznes ishlab chiqarish va iste'mol jarayonlari bilan bog'liq. Bu jarayonlar biz "iqtisod" deb ataydigan geografik hududda sodir bo'ladi. Ko'pincha bu atama milliy ma'noda ishlatiladi (masalan, O'zbekiston yoki Amerika yoki Britaniya iqtisodiyoti kabi, lekin u "mahalliy iqtisodiyot", "Yevropa iqtisodiyoti" yoki "global iqtisodiyot" kabi boshqa darajalarda ham qo'llanilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/3826>
2. D.S. Qosimova. Menejment nazariyasi. Darslik. - Toshkent, «Tafakkur-bo'stoni». 2011. 336-bet.
3. M.B.Bekmuradov., X.X.Shodiyev. "Menejment nazariyasi va amaliyoti". Magistrlar uchun o'quv qo'llanma. Toshkent - 2021 y. "Zamon poligraf" OK nashriyoti. 272 b.
4. Zamonaviy menejment nazariyasi va amaliyoti (o'quv qo'llanma) Akademiya Toshkent 2006
5. Haydarov A. Ijodiy faoliyatni rejalashtirish va boshqarish- Toshkent. "Kamalak" 2019. 192 b.

MUSIQA SAN'ATI FANLARINI O'QITISHDA TA'LIM JARAYONINING TUZILMASI

Abduraxmanov Kamronbek Baxrom o'g'li

Namdu Musiqa ta'limi va san'at yo'nalishi 2-kurs magistr

Annotatsiya: *Bugungi kunda odamlar o'rtasidagi muloqotning tobora ko'payib borayotgan qismi virtual kommunikatsiya texnologiyalari dunyosiga kirib bormoqda. Musiqa axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan chetda turolmadi. Kompyuter yordamida, agar inson xohlasa, kishi uydan chiqmasdan, havaskor uskunalardan foydalangan holda ovozli yozuvlar yozishi, unga turli effektlar yordamida maxsus dasturda qayta ishlashi, so'ngra MP3 formatida "yangi yozilgan xit"ni internet orqali tarqatishni boshlashi mumkin.*

Kalit so'zlar: *Kompyuter, musiqa, multimediya, pleyerlari, ovoz, to'lqin.*

Kompyuter musiqa dasturlarini uchta asosiy guruhga bo'lish mumkin. Birinchi guruhga tovush to'lqini bilan ishlaydigan dasturlar kiradi. Bu audio va video fayllarni ijro etish uchun mo'ljallangan turli xil multimediya pleyerlari; ovoz to'lqinini tahrirlashingiz mumkin bo'lgan barcha audio muharrirlar; shuningdek, disklarni yozish uchun dasturlar. Aytishimiz mumkinki, ushbu guruh dasturlari inson faoliyatining har xil turlarida eng ko'p qo'llaniladi. Ikkinchi guruhga ko'plab funktsiyalarni birlashtirgan Sekvensor dasturlari kiradi. Yaqinda Sekvensor MIDI va audio tovush bilan ishlashning universal dasturiga aylandi, ammo dastlab ular faqat MIDI guruh bilan ishlashdi. Va dasturlarning uchinchi guruhi musiqa muharrirlari bo'lib, ularning yordamida musiqiy matn terish usuli xuddi Microsof Word yordamida matn terishdek.

Kundalik foydalanishda eng oddiy lari media pleyerlardir. Eng ommabop lari

Windows Media, WinAmp va CyberLink PowerDVD. Media pleyerlar yordamida CD lardan (siqilmagan audio formatlari: *.WAV, *.AIFF; Ma'lumotlari yo'qolmagan siqilgan audio formatlar: *.APE, *.FLAC; ma'lumotlari qisman yo'qolgan siqilgan audio formatlar: *.MP3, *.OGG) formatdagi musiqalarni tinglash mumkin. Shuningdek, DVD formatdagi videofilmlarni va boshqa siqilgan formatlarni (*.AVI,

*.MPEG, *.WMV, *.VOB, *.TS, *.MP4 va boshqalar) tomosha qilish mumkin. Internet texnologiyalarining rivojlanishi bilan ushbu dasturlarning funksiyalari sezilarli darajada kengaymoqda, ushbu dasturlar yordamida internet radiosini tinglash mumkin bo'ladi. Diskni nusxalashda ijrochi haqidagi ma'lumotlar va qo'shiq nomlari avtomatik ravishda to'ldirilib, foydalanuvchilarning hayotini ancha osonlashtiradi.

Kompyuter musiqa dasturlari audio muharrirlarni ham o'z ichiga oladi, masalan, Adobe Audition, Sony Sound Forge, Steinberg Wave Lab. Ushbu dasturlar ko'proq professional foydalanuvchilar uchun mo'ljallangan. Ularning yordami bilan audio kompakt diskni MP3 formatiga ko'p sonli qo'shimcha imkoniyatlar bilan o'zgartirish